

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMY VA TARBIYAVIY INTERFAOL O'YINLARNING AHAMIYATI

Daminova Gulnora Abdusamatovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani

32-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

@Daminova7 +998 911605410

Annotatsiya. Maqolaning asosiy mazmunida boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar, ularning turlari, boshlang'ich sinflarda qo'llash usullari zamonaviy texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, shakl, metod, vositalar, aqliy xujum, tarmoqlar, sinkveyn, zigzag, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, fsmu, yumaloqlangan qor, akt, zamonaviy metodlar, zamonaviy dars shakli, internet, elektronpochta.

Значение обучающих и обучающих интерактивных игр в младших классах

Аннотация. В основном содержании статьи интерактивные методы в начальных классах, их виды, роль современных технологий в образовательном процессе, методы применения в начальных классах, современная педагогика учителей начальных классов общеобразовательных школ возможности использования технологий

Ключевые слова: педагогические технологии, интерактивные методы, форма, метод, инструменты, мозговой штурм, сети, синквейн, зигзаг, работа в малых группах, дебаты, фгму, круглый снег, икт, современные методы, современная форма обучения, интернет, электронная почта.

The importance of educational and educational interactive games in early grades

Annotation. In the main content of the article, interactive methods in primary grades, their types, the role of modern technologies in the educational process, methods of application in primary grades, modern pedagogy of primary grade teachers of general secondary schools opportunities to use technologies

Keywords: pedagogical technologies, interactive methods, form, method, tools, brainstorming, networks, cinquain, zigzag, work in small groups, debate, fsmu, rounded snow, ict, modern methods, modern form of teaching, internet, electronic mail.

Kirish: Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ayni vaqtda Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga

bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamonlama o'yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi:

Yangi metod o'yinlar nomlari:

"Bizni kut ",

"Bilib ol" ,

"Qadam tashla",

"Charxpalak"

Demak, o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hayotni, borliqni, tevarak- atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. O'yin paydo bo'lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

- o'yin ishtirokchilari bilan bo'lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo'lishi;
- tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi;
- o'yin davomida o'quvchilarning o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

- ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash;
- zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobilyatini o'stiradi. Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy- psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi. Ma'lumki bolaning ta'lim olish jarayonida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bolib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti -o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga harakat qilishi lozim. Farzandlarimiz mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari uchun, albatta, ularni kichik yoshdanoq har bir fanga qiziqtirish zarur. Bunda o'qituvchi mahorati nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchi bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini puxta o'rgangan holda ta'lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish ustida tinimsiz izlanishi, o'zidagi bor bilimni mahorat bilan ishga solishi zarur. Ta'limda o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, ularni turli zo'riqishlardan asrash, bilimlarini turli o'yinlar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarni ziyraklikka, chaqqonlikka hamda fikrni to'g'ri va aniq ifoda etishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tanlangan o'yinning o'tilayotgan mavzuga mos kelishi, qulayligi, ko'zlangan natijaga olib kelishi ham muhim mezonlardan sanaladi. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahoratiga, maqsadni to'g'ri belgilay olishiga ham bog'liq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi.

O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim- tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish, ilovalarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yanada rivojlanadi. Aytishimiz joizki interfaol va zamonaviy metodlar, axborot kommunikativ vositalarning boshlang'ich sinf darslarida qo'llanilishi o'quvchilarda zamonaviy va kreativ fikrlashiga sabab bo'ladi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012.